

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK MASALALARI

Ilmiy rahbar: Yusupova Nasiba Abdujabbarovna

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Bekbayeva Feruza

Iqtisodiyot yo`nalishi 22/3-gurux talabasi

***Abstract.** It is shown that the financial stability of economic entities increases the role of rational use of financial resources of enterprises, it is possible to ensure its constant financial balance during the development of the enterprise, to ensure sufficient financial control of the enterprise by the founders of the enterprise, to ensure sufficient financial flexibility of the enterprise, to ensure timely reinvestment of capital.*

***Key words:** enterprise, financial resources, balance sheet assets, funds, debts, stability, capital, investment.*

Gender tenglik nima??? Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra [1], gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi[2]. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli

vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

Gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohasidagi tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o'rnatilgan stereotiplar va me'yorlarni o'zgartirish maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- 1) huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarni o'zgartirish.
- 2) ayollarning iqtisodiy va intellektual mustaqilligini oshirish,
- 3) ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

Loyihaning asosiy hamkori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo'mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistika qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy qo'mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Kutilayotgan natijalar:

2025 yilga kelib yoshlar, ayollar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush sharoitlari yaxshilanadi, munosib mehnat va keng qamrovli hamda adolatli iqtisodiy o'sish natijasida yaratilgan imkoniyatlardan bahramand bo'ladi, ayollar, yoshlar va chekka qishloqlar aholisi yaxshi malaka, barqaror ish o'rinlari va mustahkamlangan turmush sharoitlaridan foydalanadi.

Ma'lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy

himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi.

Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga etarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir.

Shunday salbiy holatlarga qarshi mazkur qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi” belgilangan.

Shuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir.

Darhaqiqat, qadim yunon Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan.

eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan.

SHarq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791 yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish joiz. Albatta, barchamizga ma'lumki, 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan. BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, «Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktga ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi». Aynan mazkur xalqaro norma “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir,-degan moddaning amaliy va huquqiy asosidir. Demak, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining

sababi ham asoslidir.

Bugun Gender tenglik nafaqat tilda, balki Konstitutsiyamizda ham muhrlanmoqda. Aniqrog'i, xotin-qizlar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligi Konstitutsiyaning 46-moddasida aniq qilib belgilanmoqda.

Bu mavzu ko'p yillar davomida muhokamalar, tortishuvlar, munozaralarga sabab bo'lib kelardi. Va nihoyat, intiqib kutilgan muhim va dolzarb qadam qo'yilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday degan edi: «...bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak».

Ya'ni, gap nafaqat ayollarni ijtimoiy himoya qilish, balki xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash haqida ham bormoqda. Afsuski, o'tgan o'n-yigirma yillar davomida gender tenglik masalasi faqat tilda va qog'ozda qolib ketgan edi. Ayollarimiz, ayniqsa, qishloqdagi xotin-qizlarimizni asosan paxta dalalarida mehnat qilib, o'qish yoki kasb-hunar o'rganishlariga imkoniyati yo'q edi.

Mana 5-6 yildirki, ayollarimiz jamiyatning hamma sohalarida faol ishtirok etib, davlat rivojlanishiga o'z hissasini qushib kelayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Bunga ayollarimizga ko'rsatilayotgan ishonch va imkoniyat o'laroq katta natijalarga erishilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday fikrlashimizga asoslar bor albatta. Masalan, bugun O'zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori (28.05.2021) bilan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

Faxr bilan aytish kerakki, O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib,

parlamentdagi xotin-qizlar ulushi qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Boshqaruvda ham ayollarimiz sezilarli darajada ko'paydi. Masalan, olib borilayotgan tub islohotlar natijasida boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Demak, kiritilayotgan 46-modda xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlaydi hamda bu sohadagi ishlarning bardavom bo'lishini, hech bir ayolning muammosi chetda va e'tiborsiz qolmasligini mustahkamlaydi.

2020 yilning 29 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tomonidan tashkil etilayotgan "Gender tenglik faoli" milliy tanlovi taqdimotiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Unda Oliy Majlis Senati a'zolari, vazirlik va idoralar, BMT Aholishunoslik jamg'armasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalar vakillari ishtirok etdilar.

Milliy tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad – mamlakatimizda gender tenglikka erishish masalasiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.

Tanlovda joriy yil yakunlari bo'yicha gender tenglikni ta'minlash sohasida yuqori natijalarga erishgan, ushbu yo'nalishda jamiyat rivoji uchun tashabbus ko'rsatayotgan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, tegishli yo'nalishlarda dolzarb vazifalarni amalga oshirayotgan vazirliklar, idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etadilar.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi, unda senatorlar, Qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi.

Majlisda ayollarning oliy ta'limolishlari uchun yaratilgan imkoniyatlarni
www.pedagoglar.org

to'g'ri yo'lga qo'yish va yanada kengaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish yakunlari muhokama qilindi.

O'rganish natijalari xotin-qizlarning oliy ta'lim olishlari uchun huquqiy, tashkiliy, amaliy jihatdan qator imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilganligini hamda ular ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanayotganligini ko'rsatdi.

Jumladan, ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida so'nggi 6 yil ichida 313ta normativ- huquqiy hujjat (1ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 ta farmoni va 65 ta qarori, hukumatning 169 ta qarori va 66 ta idoraviy qaror) qabul qilingan.

2022-yilda respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bir milliondan ortib, ularning 47,8 foizini (492 333 nafar) xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, 2022-yilda 12 300 nafar talaba-qizlarning 68,3 mlrd so'm miqdoridagi kontrakti to'lab berildi.

Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish yo'lga qo'yilib, ushbu maqsadlar uchun bugungi kungacha 139 mingdan ortiq talaba xotin- qizlarga 1 trln 300 mlrd so'm miqdorida foizsiz ta'lim kreditlari ajratilgan.

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan 2053 nafar talaba xotin-qizning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz to'lab berilgan. Majlis davomida talabalarni turar joylarga joylashtirish tizimini raqamlashtirish, ijaradagi talaba qizlar uchun ijara pullarini o'z vaqtida o'tkazib berish masalari tanqidiy muhokama qilinib, tegishli vazirlik va idoralarga ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiyalari asosida xorijiy davlatlar ta'lim muassasalariga o'qishga yuboriladigan stipendialar orasida xotin-qizlar ulushini oshirish maqsadida joylarda targ'ibot ishlarini jadallashtirish, grantlar

asosida chet elda bo'lgan va amaliyot (stajirovka) o'tagan xotin-qizlarni saralab, rahbarlik zaxirasiga kiritish va rahbarlik lavozimlariga tavsiya etib borish zarurligi aytib o'tildi.

Muhokama qilingan masala yuzasidan Qo'mitaning tegishli qaror qabul qilindi. Yangi qonun bilan gender tenglikni ta'minlash kafolatlari yaratilgani O'zbekistonda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatdi va bu mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi ilg'or qadamidan nishonadir.

Shuningdek, 2020 yilning 30 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tomonidan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan hamkorlikda davra suhbatini o'tkazildi. Unda chet elda mehnat qilayotgan migrantlarni, ayniqsa yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Gender jihatlarni hisobga olgan holda budjetlashtirish sohasini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– Ochiq va shaffof budjet siyosatini amalga oshirish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, xotin-qizlar va erkaklarga manzilli davlat xizmatlari ko'rsatish, ularning sifati va samaradorligini oshirish;

– Xotin-qizlar va erkaklarga mo'ljallangan resurslar hamda xizmatlarni taqsimlash bo'yicha oldindan aniqlangan maqsadlarga ko'ra davlat mablag'laridan samaraliroq foydalanishni rag'batlantirish;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va mahalliy budjet loyihalarini, ishlab chiqish jarayonida gender jihatlarni hisobga olgan holda ularni gender ekspertizasidan o'tkazish, "Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ni rejalashtirish hamda uni budjetlashtirish jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish;

– Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda hududlar iqtisodiyotiga gender budjetlashtirishni joriy qilishga oid indikatorlarni, shuningdek davlat xizmatchilari uchun gender budjetlashtirish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentihuzuridagi Davlat boshqaruvi

akademiyasi o'quv dasturlarini ishlab chiqishdagi gender budjetlashtirish masalalarini hisobga olish;

– Budjet tizimini rejalashtirish ishlariga gender yondashuvlarni joriy etish maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda budjetlar, budjet jarayonlarining gender tahlilini o'tkazish;

Xulosa qilib, aytadigan bo'lsak, gender byudjetlashtirish O'zbekistonning yuqori darajada rivojlanishi shuningdek, amaliy natijalar ko'rsatkichi asosida milliy maqsadlarga erishishga bo'lgan intilishining navbatdagi tasdig'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Gender byudjetlashtirish borasida olib borayotgan islohotlarimiz albatta o'z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kalabixina I.Y. kandidat ekonomicheskix nauk, dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomicheskogo fakulteta MGU.

2. Kalabixina I.Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i m demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskie materialy po kursu. M., 1998.

3. Gender tenglik komissiyasi haqidagi rasmiy saytining „Komissiya haqida“ sahifasi, 2021-04-14da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2021-04-14

4. Savelev S. V. Intervyu: ot vesa mozga zavisit ves v obshchestve

5. Alefina Posternak Ravenstvo mujchin i zenщin. Yeshyo odna utopiya? (Wayback Machine saytida 2011-10-18 sanasida arxivlangan) // Internet-gazeta „Yediniy mir“, 08.03.2010

6. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019